



MUQUMIY TEATRI

*Temirova Sarbina-Bonu
Mirsoliyeva Durdona*

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti
Farg'ona mintaqaviy filiali Qo'g'irchoq teatr aktyorligi
4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Yurtimizning har bir viloyatida o'zining viloyat teatri mavjudligini barchamiz bilamiz. Biroq, o'sha har bir viloyat teatrining tarixi, kelib chiqishi, kechasi va buguni haqida esa oramizda juda ham kam sonli insonlar xabardor va ma'lumotga egadirlar. O'zbek teatri va o'zbek teatrлari juda ham boy tarixga ega va ayni hozirgi kunda ham o'z mavqeini yo'qotib qo'ygan emas deb bemalol ayta olamiz. Quyida aynan shu buyuk tarixga va buguniga ega bo'lgan Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatrining kechasi va buguni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy, sahnaviy, drama, rejissor, teatr, musiqa, komediya, rahbar, xalq, an'ana, milliy, spektakl, jahon, o'zbek, front, mardonavor, hikoya, mehnat, jasorati, repertuar, sahna, ijodiy, namoyon, asar, Metafora, shartli, obrazlar, kompozitsiya, keng, boy, musiqiy, ovozlilik, davlat.

Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatri — O'zbekistonning yirik teatrларидан бири. 1939-yil 30-noyabrda komik aktyor M. Miroqilov tashabbusi bilan Respublika komediya va satira teatri sifatida tashkil etilib, faoliyatini "Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi" (Hamza) spektakli (rej. M. Miroqilov) bilan boshlagan. Ijodiy guruh 45 kishidan iborat bo'lib, Mirshohid Miroqilov — badiiy rahbar, F. Umarov, B.Xo'jayev — rej.lar; M. Kuznetsova, S. Xo'jayev, A. Bakirov, M. Yoqubova, M. Xolmuhamedov, A. Boltayev, O. Fayozova, A. Yusupov, U. Abdullayev, M. G'ofurov, M. Mirtolipov, Z. Shermatova singari aktyorlar tashkil etdi. "O'jar xonim" (Lope de Vega), "Oshiklar" (B. Xalil), "Qozixona" (G'. G'afurov) kabi spektakllar teatrning dastlabki spektakllari bo'ldi.

1940-yil teatr musiqali drama va komediya teatri nomi bilan qayta tashkil topdi. T. Jalilov — badiiy rahbar, A. Azimov — bosh rejissor etib tayinlandi.

Teatrning birinchi katta ishi "Tohir va Zuhra" (S. Abdulla; T. Jalilov, 1941) musiqali dramasi bo'ldi. Xalq badiiy an'analariga yaqinligi bilan ajralib turgan bu spektaklning yutug'i milliy musiqa merosi namunalarida va T. Jalilovning o'ziga xos



original kuylarida namoyon bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi davrida teatr o‘zbek xalqining front orqasidagi mardonavor mehnati va jasorati xaqida hikoya qiluvchi "Qurban Umarov" (S. Abdulla, Chustiy; T. Jalilov), "Qasos" (Sh. Tuyg‘un, A. Umariy; Yu. Rajabiy, B. Nadejdin), "Oftobxon" (K. Yashin; X. To‘xtasinov) kabi spektakllar bilan o‘z repertuarini boyitdi. O‘sha yillar saxnalashtirilgan "Nurxon" (K. Yashin; T. Jalilov) o‘zbek musiqali drama janrining yuksak namunasiga aylandi.

Urushdan keyingi yillar teatr repertuarida kichik mavzularga muroja-at etish, soxta jo‘shqinlik kayfiyati yetakchilik qildi. Spektakllar sahnalashtirish va ijro mahorati jihatidan ancha sayozligi natijasida teatr mavkei ancha tushib ketdi va ko‘pgina ijodkorlar teatrni tashlab ketdi. 40-yillarning oxiri — 50-yillarning boshlariga kelib teatr hayoti ancha jonlandi, chunki teatr 1948-yil Toshsovet nomidagi Yangiyo‘l musiqali drama teatri bilan birlashtirildi va teatr jamoasi yangi binoga ko‘chib o‘tdi.

Teatrning ijodiy tarkibi R. Hamroyev (1959—76 yillar bosh. rej.), H. Umarov, M. Isroilov, U. Qoraboyev, M. Orifboyev, keyinchalik S. Po‘latov, B. Ixtiyorov, H. Sharipov, M. Ixtiyorova, N. Po‘latova, F. Ahmedov, T. Nazarova, M. Mirtolipov, V. Raykova kabi aktyor va rej.lar bilan mustahkamlandi. Natijada "Alpomish" (S. Abdulla; T. Jalilov), "Farhod va Shirin" (K. Yashin; Yu. Rajabiy, G. Mushel), "Muqimiy" (S. Abdulla; T. Jalilov, G. Mushel), "Surmaxon" (B. Rahmonov; T. Jalilov, L. Stepanov), "Rav-shan va Zulxumor" (K. Yashin; T. Jalilov, G. Mushel) singari spektakllar bilan teatr o‘z mavqeini ko‘tarib oldi.

50 — 60-yillarga kelib musiqali dramalar yaratishda nafaqat bastakorlar, balki kompozitorlar ham faol qatnasha boshladilar. "Oltin ko‘l" (Uyg‘un; M. Leviyev), "Vatan ishqisi" (Sh. Sa’dulla, Z. Fatxullin; S. Boboyev), "Toshbolta oshiq" (H. G‘ulom; M. Leviyev), "Momo yer" (Ch. Aytmatov; I. Akbarov), "Nodira" (X. Razzoqov; K. Jabborov, S. Hayitboyev) va boshqa shular jumlasidan. Bu spektakllardan keyin turli mavzudagi asarlarni musiqiy va sahna talqinini hal etishda teatrning ijodiy imkoniyatlari kengligi namoyon bo‘ldi. Shu davrda yaratilgan eng yaxshi spektakllarning sahna yuzini ko‘rishida Mannan Uygur, Ya. Bobojonov, M. Muhammedov, Z. Qobulov, E. Yungvald-Xil-kevich, R. Hamroyev, M. Mirtolipov kabi rej.lar, F. Shamsutdinov, N. Ginzburg, F. Nazarov, G. Doniyax singari dirijyorlar, G. Vizel, Sh. Shoraximov, Z. G‘oyibov, P. Koval va boshqa rassomlar, V. Gubskaya, Ye. Baranovskiy, N. Gordon, R. Vahobov, R. Karimova kabi baletmeysterlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Ichki kechinmalarni yetkazish bilan birga xonandalik va dramatik mahorat uyg‘unligi X. Ahmedov, M. G‘afurov, F. Rahmatova, E. Jalilovalar ijrosida, ifoda vositalarining his-tuyg‘uga to‘laligi, bir



obrazdan ikkinchi obrazga tez uta bilish san'ati L. Sarimsoqovada, betakror kolorit, o'ziga xos xalq yumori bilan yug'rilgan ijro S. Xujayevda, kinoya, yaxlitlik, ijro madaniyati H. Umarovda alo-xdda ajralib turdi.

70—80-yillarga kelib teatrning muvaffaqiyatli spektakllari asosan tarjima asarlardan iborat bo'ldi. "Qonli to'y" (Garsiya Lorka; I. Akbarov), "Reja" (R. Tagor; M. Bafoyev), "Prometey" (Yu. Marsinkyavichus; M. Bafoyev), "Jon qizlar" (K. Shang'itboyev, K. Boyseitov; A. Muhamedov), "Malinovkada to'y" (L. Yuxvid; B. Aleksandrov), "Momo yer" (Ch. Aytmatov; I. Akbarov), "Un ikkinchi kecha" (U. Shekspir), "Xonuma xonim" (A. Sagareli; G. Kancheli) kabi musiqali dramalar shular jumlasidan.

Murakkab falsafiy mavzular yoritilgan bu spektakllarda musikaning roli kutarilishi bilan birga xor, balet Muqimiylar teatri binosi. vazifalari kengaytirildi, metafora, simvolika, shartli teatr qullanmalaridan keng foydalanildi, shuningdek, boy sahna kompozitsiyasi, obrazlar talqinida musiqiy kup ovozlilik qullanildi.

1972-yildan teatr O'zbek davlat musikiy teatriga aylantiriddi. "Zuldir" (A. Ibrohimov; M. Bafoyev), "hiylai shar'iy" (R. Guntekin; M. Mahmudov) kabi satirik komediyalarda musiqada ham, aktyorlar ijrosida ham hazilmutoyiba, uziga xos utkir kinoya, istehzo ustunlik qildi. Lekin 70—80-yillar tajribasi shuni kursatdiki, teatr repertuari o'sha davrda yaratilgan adabiy asarlardan ancha orqada qolib ketdi. Sahna rivojlanishi juda past bo'lib, murakkab mavzulardan kuchildi, maishiy komediylar yaratishga, bir xil qoliddgi spektakllar sahnalashtirishga e'tibor qaratidsi. Bunga katta avlod urniga kelgan yosh ijodkorlarning mustaqil ijodga hali tayyor emasliklari sabab bo'ldi.

80-yillar oxiri — 90-yillarning boshlarida teatr repertuarini ko'proq ertak va afsonalar egalladi. "Gul va Navruz", "Yusuf va Zulayho", "Tuyaqush boyaqish", "Shayton va muridlar" kabilar shular jumlasidan. Shuningdek, dolzarb mavzular, qayta qurish va qayta qurishdan keyingi davr yoritilgan spektakllar ham sahnalashtirildi. Lekin spektakllarda ijtimoiy hodisalar chuqur taxlil qilinmagan holda, yuzaki hal etildi. Zamонавиy maishiy mavzu musiqali komediylar ("Kuyovlar konkursi", "Dilafruzga 4 oshiq" va boshqalar) bilangina chegaralanib qoldi.

1993—94 yillar teatr repertuari "Bir kam dunyo" (T. Yunus, A. Yunus), "To'ylar muborak" (O'. Hoshimov, O. Muxtor; M. Maxmudov), "Toshkentga sayohat" (B. Dar-vesh; N. Xalilov) va boshqa musiqali komediylar bilan boyidi. Bu spektakllarda xalq lirik kuylari, hazil, o'yinbop qo'shiklar asosiy o'rinn tutdi. O'sha yillarda sahnalashtirilgan "Nodirabegim" (T. To'la; F. Olimov), "Har kimki vafo



qilsa" (H. Muhammad; A. Ismoilov, S. Xayitboyev, M. Otajonov) kabi spektakllarda tarixiy mavzuga qaytish, milliy madaniyatimiz rivojiga katta hissa qo'shgan yirik tarixiy shaxslarni gavdalantirishda teatr sifat jihatiga alohida e'tibor berdi.

1995—97-yillar "Fotima va Zuhra" (O'. Umarbekov; F. Olimov), "Oqibat" (R. Ma'diyev; B. Umidjonov), "Devona" (R. Ma'diyev, F. Olimov) vab. spektakllarda realistik an'analar ta'sirchan melodramalar bilan uyg'unlashib ketdi.

Keyingi yillarda syujet chizig'i hazil-mutoyiba, kiziqchilik, aktyorning yangi topilmalari bilan qorishib ketgan "Bu qanday balo" (E. Yusufaliyev; N. Xalilov), "Superqaynona" (S. Ismoilov; F. Olimov), shuningdek, "Tuydan keyin tomosha" (Shukrullo; N. Norxo'jayev), "Taqdir" (R. Ma'diyev; B. Lutfullayev), "O'lding, aziz bo'dding" (X. Xursandov; F. Olimov) kabi bir qancha muvaffaqiyatli spektakllar sahnalashtirildi.

Bugungi kunda teatr izlanishda, harakatda, F. Rahmatova, M. Ixtiyorova, S Po'latov, N. Po'latova, D. Safoyeva, M. Yoqubova, M. Qayumova, A. Mirzayevalar bilan bir qatorda R. Solihov, T. Beknazarov, M. Salimov, T. Pirjonov, X. To'xtayev, Z. Boyxonova, B. Xolmirzayev, M. Bekjonova, A. Bekjonov, N. Rustamov, G. Rustamova, D. Uzoqov kabi yoshlar ham teatrning yetakchi aktyorlaridir.

Teatrning bosh rej.i — Bahodir Nazarov, bosh dirijyor — Jo'ra Ortiqov, bosh baletmeyster — Shokir Axmedov.

Muqimiyl teatri binosi qad. va zamonaviy me'morlik uslublarini o'zaro uyg'unlashtirish asosida barpo etilgan (1943, bezaklari —1951, me'morlar D. Xazanov, V. Tixonov; muhandis A. Rabinovich; xalq ustalari Yu. Musayev, M. Qosimov, Us ta Shirin, Sh. G'ofurov, Us ta Mo'min va boshqa qatnashgan).

Bosh tarzi 3 ravokli, peshtoqli, tepasi sharafali. Peshtokining 2 yoniga ganchkori panjarali namoyon ishlangan. Usta Yusufali daxliz zallarini qobirg'ali gumbazlar bilan ko'targan, ustunlar orasiga ustma-ust ravoqlar o'rnatib, interyeri ganch o'ymakorligida bezatilgan. Usta Mo'min tomosha zali devoriga uzum va uning barglari tasvirini ganchga o'yib ishlagan, foyesida esa gullayotgan o'rik daraxti tasvirlangan. Tomosha zali 800 tomoshabinga mo'ljallangan. Mustaqillik yillarda teatr ilk bor rekonstruksiya qilindi.

2016-yildan to 2021-yilgacha teatrga Mirza Azizov raxbarlik qilgan. Aktyor koronovirus kasalligidan vafot etgach, teatrga 2021-yil iyun oyidan Aleksandr Bekchanov raxbarlik qildi. 2023-yil 22-fevraldan teartga Azim Mullaxonov raxbar etib tayinlandi.



Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)
2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)
3. Qo'g'irchoq teatr tarixi (M. Qodirov, S. Qodirova)
4. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D.Abdullayev, L.D.Usmanova)

Foydalilanilgan web-saytlar:

1. Tafakkur.net sayti
2. Ziyouz.com sayti
3. Qomus.info sayti
4. Saviya.uz sayti
5. Shosh.uz sayti
6. Vikipediya
7. Yoair.com sayti